

## YOSH EFL O'QUVCHILARIDA MAQTOV VA KONSTRUKTIV FIKR-MULOHAZA ORQALI MOTIVATSIYANI KUCHAYTIRISH

**Mashrapova Ma'suda Abduraxmon qizi**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti

Milliy tadqiqot universiteti

Ingliz tili filologiyasi va tillarni o'qitish.

Fakultet: Ekologiya va huquq.

[mashrapovamasuda@gmail.com](mailto:mashrapovamasuda@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20303348>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yosh EFL o'quvchilarida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishda o'qituvchi maqtovi va konstruktiv fikr-mulohazaning pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot xususiy o'quv markazida ingliz tilini o'rganayotgan 20 nafar o'quvchi ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar yosh xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratildi: 8-10 yoshdagi 10 nafar kichik yoshdagi o'quvchi va 12-15 yoshdagi 10 nafar o'smir o'quvchi.

Tadqiqot davomida og'zaki maqtoiv, ijobiy rag'batlantirish, konstruktiv fikr-mulohaza, aniq maqsad qo'yish, juftlik va guruh ishlari, o'yinli topshiriqlar hamda qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi-o'quvchi muloqoti qo'llanildi. Ma'lumotlar pre-so'rovnoma, dars kuzatuv, pre-test, post-test va post-so'rovnoma orqali yig'ildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, motivatsion strategiyalardan tizimli foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligi, ishonchi va ingliz tilida muloqot qilishga tayyorligini oshirdi. Umumiy o'rtacha test ko'rsatkichi 50 ball dan 71 ballga ko'tarildi. Kichik yoshdagi o'quvchilar maqtoiv, o'yin va vizual materiallarga faolroq javob bergan bo'lsa, o'smir o'quvchilar mazmunli fikr-mulohaza, aniq maqsad va shaxsiy fikr bildirish imkoniyatlariga ijobiy munosabat bildirdilar.

**Kalit so'zlar:** EFL, motivatsiya, o'qituvchi maqtoivi, konstruktiv fikr-mulohaza, yosh o'quvchilar, ingliz tili, dars faolligi, kommunikativ yondashuv.

## РОЛЬ МОТИВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ УЧИТЕЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ МОТИВАЦИИ К ИЗУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА У МОЛОДЫХ EFL- УЧАЩИХСЯ

**Аннотация.** В данной статье анализируется педагогическое значение похвалы учителя и конструктивной обратной связи в повышении мотивации молодых учащихся EFL к изучению английского языка. Исследование было проведено в частном учебном центре с участием 20 учащихся, изучающих английский язык как иностранный. Участники были разделены на две возрастные группы: 10 младших учащихся в возрасте 8-10 лет и 10 подростков в возрасте 12-15 лет. В ходе исследования применялись устная похвала, положительное подкрепление, конструктивная обратная связь, постановка ясных целей, парная и групповая работа, игровые задания и поддерживающее взаимодействие между учителем и учащимися. Данные были собраны с помощью предварительного анкетирования, наблюдения за уроками, предварительного теста, итогового теста и итогового анкетирования. Результаты показали, что систематическое использование мотивационных стратегий повысило активность, уверенность и готовность учащихся к общению на английском языке.

*Общий средний результат теста повысился с 50 до 71 балла. Младшие учащиеся более активно реагировали на похвалу, игры и визуальные материалы, тогда как подростки положительно воспринимали содержательную обратную связь, ясные цели и возможность выразить личное мнение.*

*Ключевые слова: EFL, мотивация, похвала учителя, конструктивная обратная связь, молодые учащиеся, английский язык, активность на уроке, коммуникативный подход.*

### **THE ROLE OF TEACHER MOTIVATIONAL STRATEGIES IN DEVELOPING YOUNG EFL LEARNERS' MOTIVATION TO LEARN ENGLISH**

*Abstract. This article analyzes the pedagogical role of teacher praise and constructive feedback in increasing young EFL learners' motivation to learn English. The study was conducted in a private learning centre with the participation of 20 learners of English as a foreign language.*

*The participants were divided into two age groups: 10 younger learners aged 8-10 and 10 teenage learners aged 12-15. During the study, the teacher applied verbal praise, positive reinforcement, constructive feedback, clear goal-setting, pair and group work, game-based tasks, and supportive teacher-student interaction. Data were collected through a pre-questionnaire, classroom observation, pre-test, post-test and post-questionnaire. The results showed that the systematic use of motivational strategies increased learners' classroom participation, confidence and willingness to communicate in English. The overall mean test score rose from 50 to 71.*

*Younger learners responded more actively to praise, games and visual materials, while teenage learners benefited more from meaningful feedback, clear learning goals and opportunities for personal expression.*

*Keywords: EFL, motivation, teacher praise, constructive feedback, young learners, English language, classroom participation, communicative approach.*

### **KIRISH**

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini o'rganish nafaqat ta'limiy ehtiyoj, balki ijtimoiy, kasbiy va akademik rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy o'quv materiallarini joriy etish va til o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Shu sababli ingliz tili darslarida faqat grammatik bilim yoki lug'at boyligini shakllantirish emas, balki o'quvchilarda ishonch, qiziqish va faol ishtirokni rivojlantirish ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

Til o'rganish jarayonida motivatsiya o'quvchining darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarishga tayyorligi, xatolardan qo'rqmasligi va muloqot qilishga intilishi bilan bevosita bog'liqdir. Dörnyei va Ushioda motivatsiyani til o'rganish muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi dinamik va kontekstga bog'liq jarayon sifatida talqin qiladilar [2]. Bu yondashuvga ko'ra, motivatsiya o'quvchida doimiy va o'zgarmas xususiyat emas; u dars muhiti, o'qituvchining munosabati, topshiriq mazmuni va fikr-mulohaza sifati orqali kuchayishi yoki susayishi mumkin.

O'qituvchi maqtovi va konstruktiv fikr-mulohaza yosh EFL o'quvchilari motivatsiyasini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Maqtoov o'quvchining sa'y-harakatini tan olish, unga o'z yutug'ini his qildirish va keyingi faoliyatga undash vazifasini bajaradi. Biroq har qanday maqtoov samarali bo'lavermaydi. Peng tadqiqotida o'qituvchi maqtoovi EFL o'quvchilarining akademik motivatsiyasi va darsdagi faolligi bilan bog'liq ekani ko'rsatiladi [4]. Shu bilan birga, fikr-mulohaza faqat xatoni ko'rsatish vositasi emas, balki o'quvchiga keyingi rivojlanish yo'lini ko'rsatadigan pedagogik yordamdir. Cen va Zheng tomonidan o'tkazilgan meta-tahlilda turli feedback amaliyotlari L2 o'quvchilarining yozma nutq motivatsiyasiga ta'sir qilishi qayd etilgan [5].

Ushbu maqolaning maqsadi yosh EFL o'quvchilarida maqtoov va konstruktiv fikr-mulohaza orqali motivatsiyani oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqola bitiruv malakaviy ishi umumiy mavzusidan farqli ravishda o'qituvchining barcha motivatsion strategiyalarini emas, balki aynan maqtoov va konstruktiv fikr-mulohazani markaziy tadqiqot obyekti sifatida tahlil qiladi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqot xususiy o'quv markazida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan 20 nafar o'quvchi ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar yosh xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga ajratildi: birinchi guruh 8-10 yoshdagi 10 nafar kichik yoshdagi o'quvchidan, ikkinchi guruh esa 12-15 yoshdagi 10 nafar o'smir o'quvchidan iborat bo'ldi. Kichik yoshdagi o'quvchilar elementary darajasida, o'smir o'quvchilar esa elementary/pre-intermediate darajasida ingliz tilini o'rganayotgan edilar.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pre-so'rovnoma, dars jarayonini kuzatish, pre-test, post-test, post-so'rovnoma va o'qituvchining reflektiv qaydlari. Pre-so'rovnoma o'quvchilarning dastlabki qiziqishi, ishonchi, darsdagi faolligi, maqtoov va fikr-mulohazaga munosabatini aniqlash uchun tuzildi. Pre-test o'quvchilarning dastlabki o'quv ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qildi. Eksperimental jarayonda esa og'zaki maqtoov, ijobiy rag'batlantirish, konstruktiv fikr-mulohaza, juftlik va guruh ishlari, o'yinli topshiriqlar, vizual materiallar va aniq dars maqsadlari qo'llanildi.

Tadqiqotning mustaqil o'zgaruvchisi o'qituvchi tomonidan qo'llangan motivatsion strategiyalar, xususan, maqtoov va konstruktiv fikr-mulohaza bo'ldi. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi belgilandi. Motivatsiya darsdagi ishtirok, savollarga javob berish, topshiriqlarni bajarish, ingliz tilida muloqot qilishga urinish, xatolardan keyin qayta urinib ko'rish va feedbackga munosabat orqali kuzatildi.

Nazariy asos sifatida Self-Determination Theory tanlandi. Ryan va Deci fikriga ko'ra, motivatsiya o'quvchining avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlari qo'llab-quvvatlanganda kuchayadi [3]. Ingliz tili darsida bu ehtiyojlar o'quvchiga tanlov berish, bajarilishi mumkin bo'lgan topshiriqlar berish, konstruktiv fikr-mulohaza bildirish va ijobiy psixologik muhit yaratish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

### **NATIJARLAR**

Pre-so'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba boshida o'quvchilarning ingliz tiliga umumiy qiziqishi mavjud bo'lsa-da, ularning nutqiy ishonchi va darsdagi faol ishtiroki yetarli darajada yuqori emas edi. O'quvchilarning 55 foizi ingliz tilini o'rganishga qiziqishini bildirgan bo'lsa, faqat 35 foizi ingliz tilida gapirishda o'zini ishonchli his qilishini qayd etdi. Darslarda faol qatnashishini bildirganlar 40 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 70 foiz o'quvchi o'qituvchi maqtovi ularni yaxshiroq o'qishga undashini, 50 foiz o'quvchi esa feedback ingliz tilini yaxshilashga yordam berishini bildirdi.

### 1-jadval. Pre-so'rovnoma natijalari

Ko'rsatkich	Roziman	Qisman roziman	Rozi emasman
Ingliz tilini o'rganishga qiziqaman	55%	30%	15%
Ingliz tilida gapirganda o'zimni ishonchli his qilaman	35%	40%	25%
Ingliz tili darslarida faol qatnashaman	40%	35%	25%
O'qituvchi maqtovi meni yaxshiroq o'qishga undaydi	70%	20%	10%
O'qituvchi fikr-mulohazasi ingliz tilimni yaxshilashga yordam beradi	50%	35%	15%

Dars kuzatuv natijalari motivatsion strategiyalar qo'llangandan keyin o'quvchilarning sinfdagi xatti-harakatlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi. Tajribadan oldin 20 nafar o'quvchidan 8 nafari topshiriqlarda faol ishtirok etgan bo'lsa, tajribadan keyin bu ko'rsatkich 16 nafarga yetdi. Ishonch bilan javob bergan o'quvchilar soni 7 nafardan 15 nafarga, ingliz tilida muloqot qilishga uringanlar soni esa 6 nafardan 14 nafarga oshdi.

### 2-jadval. Dars kuzatuv natijalari

Kuzatuv ko'rsatkichi	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin
Dars davomida e'tiborli bo'lgan o'quvchilar	11 nafar	17 nafar
Topshiriqlarda faol qatnashgan o'quvchilar	8 nafar	16 nafar
Ishonch bilan javob bergan o'quvchilar	7 nafar	15 nafar
Topshiriqlarni xohish bilan bajargan o'quvchilar	10 nafar	18 nafar
Ingliz tilida muloqot qilishga uringan o'quvchilar	6 nafar	14 nafar

Pre-test va post-test natijalari ham motivatsion strategiyalarning ijobiy ta'sirini tasdiqladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'rtacha natijasi 48 balldan 69 ballga, o'smir o'quvchilarning o'rtacha natijasi esa 52 balldan 73 ballga ko'tarildi. Umumiy o'rtacha natija 50 balldan 71 ballga oshdi.

### 3-jadval. Pre-test va post-test o'rtacha natijalari

Guruh	O'quvchilar soni	Pre-test o'rtacha bali	Post-test o'rtacha bali	Farq
Kichik yoshdagi o'quvchilar	10	48	69	+21
O'smir o'quvchilar	10	52	73	+21
Umumiy natija	20	50	71	+21

Post-so'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 85 foizi ingliz tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshganini bildirdi. 75 foiz o'quvchi darsda o'zini ishonchliroq his qilganini, 90 foiz o'quvchi o'qituvchi maqtovi faolroq ishtirok etishga yordam berganini, 80 foiz o'quvchi esa konstruktiv fikr-mulohaza ingliz tilini yaxshilashga yordam berganini qayd etdi.

4-jadval. Post-so‘rovnoma natijalari

Ko‘rsatkich	Roziman	Qisman roziman	Rozi emasman
Ingliz tilini o‘rganishga motivatsiyam oshdi	85%	15%	0%
Ingliz tili darslarida o‘zimni ishonchliroq his qilaman	75%	20%	5%
O‘qituvchi maqtovi faolroq qatnashishimga yordam berdi	90%	10%	0%
O‘qituvchi fikr-mulohazasi ingliz tilimni yaxshilashga yordam berdi	80%	15%	5%
O‘yinlar, juftlik ishlari va interaktiv topshiriqlar menga yoqdi	85%	15%	0%

### DISKUSSIYA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yosh EFL o‘quvchilarida motivatsiyani rivojlantirishda o‘qituvchi maqtovi va konstruktiv fikr-mulohaza muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Maqtov, ayniqsa, kichik yoshdagi o‘quvchilarda emotsional rag‘bat vazifasini bajardi.

Ular “yaxshi urinding”, “bugun aniqroq gapirding”, “yangi so‘zni to‘g‘ri ishlatding” kabi aniq va samimiy maqtovlarga faol javob berdilar. Bu holat Pengning o‘qituvchi maqtovi o‘quvchilarning akademik motivatsiyasi va engagementiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi haqidagi xulosalari bilan mos keladi [4].

Konstruktiv fikr-mulohaza esa ayniqsa o‘smir o‘quvchilar uchun samarali bo‘ldi. O‘smirlar oddiy “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” bahosidan ko‘ra, qanday xatoga yo‘l qo‘yganini va uni qanday tuzatish mumkinligini bilishga ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Masalan, “fikring yaxshi, lekin fe‘l shakliga e‘tibor ber” yoki “javobing tushunarli, endi uni to‘liq gap bilan aytishga harakat qil” kabi feedback shakllari o‘quvchini kamsitmasdan rivojlanishga yo‘naltirdi. Bu Cen va Zhengning feedback motivatsion xususiyatga ega bo‘lishi uchun u aniq, izohli va rivojlanishga qaratilgan bo‘lishi kerakligi haqidagi xulosalariga mos keladi [5].

Tadqiqotda yosh farqi ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar vizual materiallar, o‘yinlar, takrorlash, stikerlar va tezkor maqtovga ko‘proq javob berdilar. O‘smir o‘quvchilar esa shaxsiy fikr bildirish, real hayotga bog‘langan topshiriqlar, aniq maqsad va mazmunli feedback orqali ko‘proq faollashdilar. Bu holat motivatsion strategiyalar barcha o‘quvchilarga bir xil qo‘llanmasligi, balki yosh, daraja va psixologik ehtiyojlarga moslashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Sugita McEown va Takeuchi ham motivatsion strategiyalarning ta‘siri o‘quvchilarning darajasi va dastlabki motivatsion holatiga qarab farqlanishini ta‘kidlaydilar [7].

Natijalar Self-Determination Theory nuqtayi nazaridan ham izohlanadi. Maqtov va konstruktiv fikr-mulohaza o‘quvchilarda kompetentlik hissini kuchaytirdi, chunki ular o‘z harakati va yutug‘i e‘tirof etilayotganini ko‘rdilar. Juftlik va guruh ishlari aloqadorlik ehtiyojini qo‘llab-quvvatladi, o‘quvchi tanlovi va shaxsiy fikr bildirish imkoniyati esa avtonomiya hissini rivojlantirdi [3]. Natijada o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, muloqotga tayyorligi va topshiriqlarni bajarish istagi oshdi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. Ishtirokchilar soni 20 nafar bilan cheklangan, tadqiqot bitta xususiy o'quv markazida olib borilgan va tajriba muddati cheklangan. Shuning uchun natijalar barcha EFL o'quvchilariga mutlaq tarzda tatbiq etilmaydi. Biroq olingan natijalar o'qituvchi maqtovi va konstruktiv fikr-mulohazadan ongli foydalanish yosh o'quvchilarning ingliz tiliga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, maqtov va konstruktiv fikr-mulohaza yosh EFL o'quvchilarining ingliz tili darslaridagi motivatsiyasini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi maqtovi umumiy va mexanik bo'lmasligi, balki o'quvchining real harakati, yutug'i va rivojlanishi bilan bog'langan bo'lishi kerak. Uchinchidan, konstruktiv fikr-mulohaza o'quvchiga xatoni ko'rsatish bilan cheklanmasdan, uni qanday yaxshilash mumkinligini ham ko'rsatishi zarur.

Tajriba davomida o'quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarishga tayyorligi, ingliz tilida muloqot qilishga urinishlari va o'ziga bo'lgan ishonchi oshdi. Umumiy o'rtacha test natijasining 50 balldan 71 ballga ko'tarilishi motivatsion strategiyalar nafaqat emotsional holatga, balki o'quv faoliyati natijalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun maqtov, o'yinlar, vizual materiallar va tezkor rag'batlantirish samaraliroq bo'ldi. O'smir o'quvchilar uchun esa aniq maqsad, mazmunli feedback, shaxsiy fikr bildirish va real hayotga bog'langan topshiriqlar ko'proq motivatsion ta'sir ko'rsatdi. Demak, ingliz tili o'qituvchisi motivatsion strategiyalarni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi va psixologik ehtiyojlariga mos holda qo'llashi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. - Toshkent, 2021. - 19-may.
2. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. 3rd ed. - London; New York: Routledge, 2021. - 296 p.
3. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. - New York: The Guilford Press, 2017. - 756 p.
4. Peng C. The Academic Motivation and Engagement of Students in English as a Foreign Language Classes: Does Teacher Praise Matter? // *Frontiers in Psychology*. - 2021. - Vol. 12. - Article 778174.
5. Cen Y., Zheng Y. The Motivational Aspect of Feedback: A Meta-analysis on the Effect of Different Feedback Practices on L2 Learners' Writing Motivation // *Assessing Writing*. - 2024. - Vol. 59. - Article 100802.
6. Howard N.-J. The Effectiveness of Teacher Motivational Strategies in EFL Contexts: A Critical Review of the Literature // *MEXTESOL Journal*. - 2023. - Vol. 47, No. 1. - P. 1-12.

7. Sugita McEown M., Takeuchi O. Motivational Strategies in EFL Classrooms: How Do Teachers Impact Students' Motivation? // *Innovation in Language Learning and Teaching*. - 2014. - Vol. 8, No. 1. - P. 20-38.
8. Hiver P., Al-Hoorie A.H., Mercer S. *Student Engagement in the Language Classroom*. - Bristol: Multilingual Matters, 2021. - 320 p.
9. Seven M.A. *Motivation in Language Learning and Teaching* // *African Educational Research Journal*. - 2020. - Vol. 8, Special Issue 2. - P. S62-S71.